



**DAVLAT XARIDLARI TIZIMIDA SHARTNOMA SHARTLARINI BAJARISH
VA TO'LOV INTIZOMNING NAZARIY ASOSLARI**

Boboqulov Jasur Avazovich

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
magistranti*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Asosiy qonunimiz negizida yaratilgan Harakatlar strategiyasi bugungi kunda jonajon Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishda, innovatsion va industrial rivojlanish sari odimlashda beqiyos o'rin egallamoqda" (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoniga sharh.). Y'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ijrosini ta'minlash maqsadida jahon tajribasida mukammal sanalgan g'aznachilik va davlat xaridi tizimi tashkil etildi. Axborot texnologiyalari asosida davlat xaridi tizimida byudjet tashkilotlarining tovar yetkazib beruvchilar bilan o'zaro munosabatlarida dastlabki nazoratga katta ahamiyat berildi. Davlat byudjeti g'azna ijrosi sharoitida davlatning moliyaviy nazoratini kuchaytirish, byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning tovarlar, ishlar, xizmatlar uchun davlat xaridi narxlarini samarali shakllantirish tartibini tubdan o'zgartirish, byudjet tashkilotlarining yuridik va moliyaviy majburiyatlarini boshqarish ishlarini rivojlanishiga qulay imkoniyat yaratildi. Chunki soliq-byudjet siyosatiga qat'iy amal qilish, davlatning ijtimoiy majburiyatlarini bajarish... – ushbu eng muhim vazifalarni amalga oshirish, avvalo, Moliya vazirligi va shaxsan vazirning faoliyati samaradorligi bilan belgilanadi (Mirziyoyev SH.M.Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. –B.29.). Y'z-y'zidan ma'lumki, bunday sharoitda Davlat byudjeti barqarorligini ta'minlash hamdada davlat xaridiga qaratilgan nazariy-metodologik va tashkiliy masalalar y'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev asarlarida iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat byudjetining ahamiyati, Davlat byudjetini samarali boshqarishda g'aznachilik hamda davlat xaridi tizimining zaruriyati va asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan. Byudjet ijrosida g'aznachilik tizimidan foydalanish, davlat xaridi mexanizmining xorijiy tajribalari I.Akperov, A.Konopleva, N.Ivanova, D.Makovnik, D.Bril, T.Saakyan, V.Revenko, N.Chmixov, A.Gulin, P.Skuridin, A.Selyametov, Sklyar kabi olimlarning ilmiy ishlari va maqolalarida o'rganilgan.

Davlat byudjetini boshqarishda g'aznachilik tizimidan foydalanish masalalari, g'aznachilik organlarining vazifalari, g'aznachilik sharoitida davlat xaridi, byudjet tashkilotlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini davlat xaridi asosida nazorat qilish masalalari T.Malikov, N. Haydarov, D.Po'latov, V.Kilberg, M.Ostonaqulov, U.Burxonov, T.Eshnazarovning monografiya, o'quv qo'llanma, ilmiy-uslubiy ishlari va ilmiy



maqolalarida tadqiq etilgan. Yuqorida e'tirof etilgan olimlarning tadqiqotlarida davlat byudjeti ijrosini isloh etishni konseptual, nazariy va amaliy jihatlarini tahlil etish va davlat xaridi tizimining amal qilishiga bag'ishlangan. Biz davlat xaridi tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish orqali davlat byudjetining moliyaviy barqarorligini oshirish b'yyicha bir qator xulosa va takliflarni taqdim etishga harakat qildik.

Davlat xaridi – tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) davlat buyurtmachilari tomonidan pulli asosda olishdir. Davlat buyurtmachisi davlat xaridlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxs hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida elektron xarid tizimini joriy etish ijobiy natijalar bermoqda. Davlat xaridi YAIMning shakllanishiga to'g'ridan -to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. To'g'ri tashkil qilingan davlat xarididan foydalanish – mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi hamda dolzarb iqtisodiy ijtimoiy vazifalarni hal qiladi. Davlat xaridi deganda, Davlat byudjeti xarajatlarini optimallashtirish, bozor munosabotlari sharoitida markazlashgan tarzda yo'naltirilgan moliyaviy oqimlarni samarali boshqarish, davlatning muhim vazifalarni bajarilishida noqonuniy xarajatlarni amalga oshirishni bartaraf etishtirish. Davlat byudjetining asosiy vazifasi YAIMni taqsimlash va qayta taqsimlash, iqtisodiyotni tartibga solish va rag'batlantirish, ijtimoiy-madaniy sohalarni mablag' bilan ta'minlash, mamlakatning markazlashgan pul jamg'armalarini vujudga keltirish va ulardan foydalanish yuzasidan nazorat qilish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining qariyb 57-58,0 foizi ijtimoiy sohani rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilishi, bu mablag'larning asosiy qismi ta'lim, sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat sohasini yuksaltirish, ehtiyojmand aholi guruhlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgani va aholi turmush farovonligini oshirish masalasi davlatimizning doimiy diqqat markazida ekanligining isbotidir. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turganidek, Davlat byudjeti xarajatlarida ijtimoiy sohalarni saqlash va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarining salmog'i yuqori. Demak, ushbu sohaga qilinayotgan xarajatlar nominal miqdorlarda ortib bormoqda. Aytish mumkinki, davlat xaridi byudjet mablag'larini samarali taqsimlash va ulardan maqsadga muvofiq foydalanishni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Professor T.S. Malikov, N.H. Haydarovning fikriga ko'ra, Davlat byudjetining narx bilan o'zaro bog'liqligi ikki yoqlamalik xarakterga ega. Byudjetda narx mexanizmidan moliyaviy resurslarni yo'naltirish va moliyaviy nazorat uchun foydalanadi. Chinakam talab va taklif asosida vujudga keladigan erkin bozor narxlarining amal qilishi bozor iqtisodiyotining g'oyat muhim bo'g'ini bo'lib, bu bo'g'in mahsulot ishlab chiqaruvchilar va istemolchilarning o'zaro jips ta'sirini ta'minlaydi.

“Narx (*price*) – shartnoma asosida yetkazib berilgan yoki sotilgan mahsulotning soniga (bajarilgan ishga va ko'rsatilgan xizmatga) to'lovni amalga oshirishga va moliyaviy majburiyatni bajarishga ta'sir ko'rsatadi. Kelishilgan narxning paydo bo'lishiga kelishuvda katnashuvchi tomonlarga umuman bog'liq bo'lmagan holda, (mahsulotning xususiyati, raqobatbardoshligi, bozorda talab va taklifning nisbati, mamlakatda davlat tomonidan tartiblashning xususiyatlari, bozor monopoliyasi) kabi bir qator obektiv holatlar ta'sir



etadi. Shuningdek, (kontragentni tanlash, bozor marketingi, shartnomani tuzilgan vaqti, joyi va shartnomani tuzish vositalari, tovar yetkazib beruvchilarning tijorat bilimi va bozor konyunkturasidan foydalanish tajribasi va savdolashish mahorati) kabi subektiv holatlarning ta'siri mavjud.

Davlat xaridi – bu davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni qisman yoki to'liq davlat mablag'lari evaziga sotib olishdir. O'zbek tilidagi “xarid” termini (*procurement*) “sotib olish” ma'nosi bilan bir xilda ishlatilib, zamonaviy tushunchalarda mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlarni ma'lum haq evaziga olish demakdir (6. Burxanov U., Atamuradov T. Davlat xaridi. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya. 2012 yil. 245 b.). Davlat tomonidan bu xaridlar (jihozlar, oziq-ovqatlar) umumjamiyat ehtiyojlari uchun va aholini talabini ta'minlash maqsadida hamda zahira uchun (bug'doy va oziq-ovqat mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari) amalga oshiriladi. Davlat xaridi tizimi davlat xaridini tashkil etish jarayonlari, davlat xaridi tamoyillari, davlat xaridi obektlari va suektlaridan iborat.

Mustaqillik yillarida davlat xaridi tamoyillari ochiqlik, oydinlik va xaqqoniylikdan iborat bo'lgan bo'lsa, “Davlat xaridlari t'yag'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, zamon talabi asosida davlat xaridining asosiy prinsiplari o'zgartirildi. Jumladan: davlat buyurtmachisining kasbiy mahorati; asoslanganlik; moliyaviy mablag'lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi; ochiqlik va shaffoflik; tortishuv va xolislik; mutanosiblik; davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi; korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik (“Davlat xaridlari t'yag'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2018 yil. 9 aprel.).

Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qilishni tashkil etish jarayoni shartnomalar tuzish va mahsulotlar yetkazib berishda muhimdir. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni xarid qilishni rejalashtirishda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ga bo'lgan talab asoslanadi. Strategik ahamiyatga ega bo'lgan va o'ta muhim mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) aniqlanadi. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni sotib olishda xarid qilinadigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) bozorini tahlil qilish natijalariga, mahsulotning narxi va sifatiga, tovar yetkazib beruvchining ishonchligiga tayaniladi. Tovlar va xizmatlarning narxini shakllan-tirish jarayonlaridagi davlatning ishtiroki uning iqtisodiyotga aralashish vositasidir hamda byudjet amaliyotida mablag'lardan samarali foydalanish yo'llaridan biridir (Kasimova G.A. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2015. 472 b.).

G'aznachilikda dastlabki nazorat moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishdan oldin o'tkaziladi, shuning uchun ogohlantiruvchi xususiyatga egadir. Chunki, bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy-moliyaviy xatolar, xo'jasizlik va qonunbuzarliklar natijasida yuzaga keladigan zararlar, ziyonlar va yo'qotishlar ko'payishi mumkin emas. Davlat xaridida xatolarni imkon qadar kamaytirish uchun noqonuniy harakatlar, kamchiliklar va tartib buzarliklarning oldi olinadi. Axborot-kommunikatsion tizimlardan foydalangan holda, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatida ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash byudjet tashkilotlari ehtiyojlarini hisobga olgan holda, davlat xizmati kyrsatishga qaratilgan



davlat boshqaruvining zamonaviy tashkiliy shakli desak b'yladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda davlat sektorining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash muhim ahamiyatga ega, uning uzluksiz va samarali faoliyati uchun esa tegishli tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o'z vaqtida ta'minlab turish zarur. Davlat xaridi esa ayni shu maqsadda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, davlat byudjeti xarajatlarining kattagina qismi davlat xaridi orqali amalga oshiriladi, bunday xaridlar byudjet barqarorligini saqlashga bevosita ta'sir qiladi.

Bizning fikrimizcha, davlat xaridiga e'tibor uning ahamiyatidan kelib chiqadi. Birinchidan, davlat xaridi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda eng katta ahamiyatga ega bo'lgan davlat sektori ishlashi uchun zarur bo'lgan tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o'z vaqtida ta'minlab turadi. Ikkinchidan, Davlat byudjeti xarajatlarining katta qismini tashkil etuvchi davlat xaridi uning barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun davlat xaridi miqdorini eng maqbul darajada saqlab turish uchun ularning yuqori samaradorligini ta'minlash o'ta muhimdir. Uchinchidan, davlat xaridi davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishda foydalaniladigan kuchli vositadir.

Davlat byudjetinig g'azna ijrosida byudjet mablag'laridan oqilona foydalanishning eng asosiy mexanizmlaridan biri – mahsulotlar, ishlar, xizmatlar xarid qilishdan narxlar monitoringini takomillashtirish hisoblanadi. Byudjetning g'azna ijrosi jarayonida narxlar monitoringi o'ziga xos ahamiyatga ega. Davlat xaridi tizimida yuridik majburiyatlar vujudga kelishidan avval dastlabki nazoratni amalga oshirish imkoniyati mavjud, bu narxlar monitoringi orqali ta'minlanadi.

Bugungi kunda davlat xaridining huquqiy asoslarini takomillashtirish talab etilmoqda. Davlat xaridi tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari bu qonuniy va meyoriy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amaldagilarini takomillashtirish, byudjet tashkilotlarida xarid jarayonini tashkil etish va yuritish bo'yicha uslubiy bazani yaratish, byudjet tashkilotlarida xarid jarayoniga mas'ul bo'lgan xodimlarni tayyorlash va malakasini oshirish, davlat xaridi mexanizmini mukammallashtirishdan iborat. “Davlat xaridlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amaliyotga joriy etish davlat sektorining tovar (ish, xizmat)larga bo'lgan ehtiyojini to'liq va samarali ta'minlanishiga, umumiy raqobatbardoshlik yuksalishiga, kichik biznesning davlat xarididagi ulushining oshishiga, iqtisodiyotda sanoat va boshqa ustuvor sohalar rivojlanishining jadallashishiga olib keladi.

“Davlat xaridlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasi (Asosiy tushunchalar)da “davlat buyurtmachisi davlat xaridlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxs”deb ko'rsatilgan. Bizning fikrimizcha, “davlat buyurtmachisi davlat xaridlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxs: byudjet va korporativ buyurtmachilardir” deb o'zgartirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

“Davlat xaridlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasi (Asosiy tushunchalar)da “davlat xaridlarining subektlari davlat buyurtmachisi, xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi, davlat xaridlarining ijrochisi, xarid komissiyasi, maxsus axborot



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



portali operatori va ekspert” deb ko‘rsatilgan. Bizning fikrimizcha, “davlat xaridlarining subektlari davlat buyurtmachisi, xarid qilish tartibtaomillari ishtirokchisi, davlat xaridlarining ijrochisi, xarid komissiyasi, elektron davlat xaridi operatori va ekspert” deb o‘zgartirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shuningdek, “davlat xaridlari to‘g‘risidagi shartnoma davlat xaridlari bo‘yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risida davlat buyurtmachisi va davlat xaridlarining ijrochisi o‘rtasida tuziladigan bitim” jumllarini “Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar sotib olish maqsadida tuzilgan davlat shartnomasi (keyingi o‘rinlarda shartoma deb ataladi) davlat xaridlari bo‘yicha huquqlar va majburiyatlarni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risida davlat buyurtmachisi va davlat xaridlarining ijrochisi o‘rtasida tuziladigan bitim” deb o‘zgartirishni taklif qilamiz.

